

tomonidan valyuta ayirboshlash uchun mamlakatimizdagi tijorat banklaridan foydalanayotganini ko'rishimiz mumkin.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. "Valyutani tartibga solish to'g'risida "gi 2019-yil 22-oktyabrdagi O'RQ 573-sonli qarori
2. "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida " PF-5877 sonli qaror
3. "O'ZBEKISTON — 2030" Strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni
4. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" SH.M.Mirziyoyev Toshkent, O'zbekiston, 2021 464 b
5. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining elektron sahifasi
6. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
7. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%84%D0%BB%D1%8F%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B5\\_%D1%82%D0%B0%D1%80%D0%B3%D0%B5%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B5#cite\\_note-1](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%84%D0%BB%D1%8F%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B5_%D1%82%D0%B0%D1%80%D0%B3%D0%B5%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B5#cite_note-1) wikipedia elektron kutubxona
8. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/basics/72-inflation-targeting.htm> international monetary fund elektron sahifasi
9. <https://www.cnbc.com/2023/02/20/the-federal-reserves-2percent-inflation-targeting-policy-explained.html> CNBC journal elektron sahifasi
10. <https://informburo.kz/>
11. <https://riorpib.com/ru/nauka/article/44005/view>

## **O'ZBEKISTONDA MILLIY VALYUTA BARQARORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

***Shamansurova Zilola Abduvaxitovna***  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*Moliya kafedrasi dotsent*  
***O'rinboyev Ulug'bek Otobekovich***  
*Toshkent davlat Iqtisodiyot unverstiteti*  
*magistratura talabasi*

Mamlakatimizda milliy valyuta barqarorligini ta'minlash orqali aholining is'temol quvvatini yanada oshirish, taklif qilinayotgan xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichini ko'tarish va buning orqasidan mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini, byutjet daromadlilagini ta'minlash mumkin. Bu esa mamlakatimizning iqtisodiy o'sishini kafolatlaydi. Milliy valyuta barqarorligini ta'minlash tushunchasini o'rganishdan oldin biz milliy valyuta nima ekanligini tushunib o'tishimiz kerak.

Milliy valyuta bu - muayyan bir mamlakatning markaziy banki tomonidan chiqariladigan valyuta hisoblanib, bu valyuta orqali shu mamlakat hududida yashovchi aholiga ko'rsatilayotkan barcha xizmatlar uchun to'lovlar, aholi tomonidan to'lani layotkan soliqlar, yig'imlar va boshqa xarajatlar uchun foydalilanadi. Shuningdek faqat mamlakat hududida emas balki milliy valyutani

qadrliliga qarab tashqi savdo va xalqaro hisob kitoblar uchun to'lovlarni ham amalga oshirish mumkin.<sup>64</sup>

Buning uchun albatta milliy valyuta boshqa mamlakatlar valyutasiga nisbatan qadri baland bo'lishi kerak ya'ni muayyan mamlakatning milliy valyutasi har qanday mamlakat milliy valyutasiga erkin konvertatsiyalanuvchi bo'lishi kerak. Shu bilan birga milliy valyuta barqarorligi nima ekanligini tushinishimiz muhim hisoblanadi.

Milliy valyuta barqarorligi – bu boshqa mamlakat valyutalariga nisbatan qat'iy belgilangan kursni emas, balki mamlakat hududida doimiy past inflatsiyani ta'minlash orqali, milliy valyutaning xarid qobilyatini saqlab turish tushuniladi.<sup>65</sup>

Milliy valyuta barqarorligini ta'minlash asosan mamlakatning Markaziy banki va Iqtisodiyot va Moliya vazirligi kabi organlar tomonidan tartibga solinadi.

Jahon tajribasiga ko'ra pul barqarorligini ta'minlash uchun asosan quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:<sup>66</sup>

- majburiy zaxira talablari
- ochiq moliyaviy bozor operatsiyalari
- asosiy foiz stavkasining o'zgartirish

Pul barqarorligini ta'minlashning majburiy zaxira talablari usulidan foydalanganda Markaziy bank tijorat banklariga Markaziy bankda ochilgan hisobraqamlariga ma'lum miqdorda naqd pul zaxiralarini saqlash bo'yicha majburiy talablarni qo'yadi. Chunki Markaziy bank mamlakatning butun iqtisodiyotining butun bank sektorini tartibga soluvchi organ hisoblanadi. Markaziy bankda ochilgan tijorat banklarining hisob raqamlaridagi pul miqdori tijorat banklari tomonidan jalg qilingan depozitlar miqdori bilan o'lchanadi. Hisobraqamlardagi saqlanayotgan pul miqdori tijorat banklarining iqtisodiy holatiga qarab moliyaviy qo'llab quvvatlash manbai sifatida qaraladi. Tijorat banklarining moliyaviy holati yomonlashganda ularga hisob raqamda saqlanayotgan pullar Markaziy bank tomonidan yo'naltiriladi, agar tijorat banki bankrotlik holatiga kelib qolsa markaziy bank tomonidan yo'naltirilgan mablag'lar tijorat bankidan haqdorlari oldidagi majburiyatni to'lash uchun yo'naltiriladi.

Endi Markaziy bank o'zida majburiy zaxiralarni tashkil qilish sababi bu mamlakat hududida pul massasini tartibga solish uchun imkon yaratadi, bu esa mamlakatda valyutaning to'lov qobilyati darajasining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Ochiq moliya bozorida operatsiyalarni amalga oshirish. Bunda mamlakatning Markaziy bankiga va Moliya vazirligiga ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish huquqi berilgan. Markaziy bank va Iqtisodiyot va Moliya vazirligi asosan bu bozorda qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasi, qimmatbaho metallar sotib olishi

<sup>64</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Milliy\\_valyuta](https://uz.wikipedia.org/wiki/Milliy_valyuta) wikipedia rasmiy sayti ma'lumotlari asosida.

<sup>65</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Milliy\\_valyuta\\_barqarorligi\\_mb](https://uz.wikipedia.org/wiki/Milliy_valyuta_barqarorligi_mb) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank elektron sahifasi

<sup>66</sup> [https://spravochnick.ru/finansv/metody\\_i\\_mehanizmy\\_obespecheniya\\_ustovchivosti\\_nationalnov\\_valvutu\\_rossiyskiv\\_i\\_zarubezhnyy\\_opyt/#:~:text=usullar%20va%20mexanizmlar-,mavjud,-%3A](https://spravochnick.ru/finansv/metody_i_mehanizmy_obespecheniya_ustovchivosti_nacionalnov_valvutu_rossiyskiv_i_zarubezhnyy_opyt/#:~:text=usullar%20va%20mexanizmlar-,mavjud,-%3A)

va sotishi mumkin. Ochiq bozor operatsiyalari Markaziy bankning asosiy faoliyati hisoblanmaydi va bu operatsiyalar ma'lum bir taklif hajmi bilan amalgalashiriladigan, to'lanadigan operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Ochiq bozor operatsiyalarini amalgalashirish orqali Markaziy bank qisqa muddatli foiz stavkalari va pul massasi hajmini nazorat qilishga harakat qiladi. Markaziy bank tomonidan kundalik doimiy operatsiyalarni amalgalashirish orqali tijoart banklarining murojatlarini to'liq qondirishdan iborat. Markaziy bankning doimiy operatsiyalari orqali pul bozorida foiz stavkalarini o'rnatishga imkon beradi. Bu orqali milliy valyutaga bo'lgan talabni, valyutaning to'lov qiymatini va to'lov qobiliyatiga ta'sirini o'rganadi.

Asosiy foiz stavkasi Markaziy bank tomonidan belgilanib, davlat pul-kredit siyosatining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Markaziy bank odatda foiz stavkasini inflatsiyani bir meyorda tutib turish uchun foydalanadi, shuning uchun asosiy foiz stavkasi inflatsiya ko'rsatkichidan yuqoriq qilib belgilanadi. Shuningdek Asosiy fozi stavkasi orqali Markaziy bank tijorat banklariga kreditlar beradi, u mamlakat moliya bozorlarida fozi stavkalarining minimal darajasini hisoblanadi.

Yurtimizda ham milliy valyuta barqarorligini ta'minlash va uning qadrini oshirish, bank tizimini yanada optimallashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, banklarda bo'ladigan operatsiyalarni sodalshtirish, mamlakatimizdagi banklarni boshqichma bosqich xalqaro valyuta bozorlarida ishtirok etishini ta'minlash, mamlakatimiz hududida inflatsiya darajasini ko'tarilib ketishini oldini olish uchun bir qator qonun hujjatlar qabul qilinmoqda, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 11-oktyabrda ma'qullangan, 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilingan O'RQ-573 sonli "Valyutani tartibga solish" tog'risida qonun qabul qilindi. Respublikamiz hududida valyuta operatsiyalarini va valyuta nazoratini amalgalashirishni tartibga solish qonunning maqsadi hisoblanadi. Qonunga ko'ra valyuta kursi endilikda qat'iy belgilangan summa bo'lmaydi, valyuta kursi Respublika hududida chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqib Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Ozgina vaqt oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877 sonli "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish" farmoni qabul qilingandi. Farmonga ko'ra inflatsion targetlashga bosqichma bosqich o'tish orqali inflatsiya darajasini 2021-yilda 10 foizga 2023-yilga kelib 5 foizga pasaytirish ko'zda tutilgan. Iqtisodiyotimizda "Inflatsion targetlash" usulining tanlanishiga qator sabablar bor, birinchidan inflatsion targetlash o'rta muddatli narxlar barqarorligini ta'minlash uchun moslashuvchan rejimi hisoblanadi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-tonli farmoniga ko'ra 2017-2021 yillarda "Harakatlar strategiyasi" qabul qilindi va iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, aholining daromadlilagini oshirish bo'yicha vazifalar belgilanib amalgalashirildi. 2022-yil 28-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 sonli 2022-2026

yillarga mo'ljallangan " Taraqqiyot strategiyasi " farmoni qabul qilindi. " Taraqqiyot strategiyasi" ning III " Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish suratlarini ta'minlash " **qismida** 2022-yilda inflatsiya miqdorini 9 foizgacha 2023-yilda 5 foizgacha hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish va keying yillarda inflatsiya va Davlat byutjeti taqchilligini shu ko'rsatkichdan oshirmaslik, 2026-yil oxiriga kelib bankda xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 2030-yil oxirigacha 4 ming AQSH dollarga yetkazish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib o'rganishlarimiz natijasida shuni aytishimiz mumkinki hozirgi kunda jadal rivojlanayokan iqtisodiyot sharoitida har bir davlat tashiqi iqtisodiy aloqlarda o'zining milliy valyutasining qadrini oshirish, mamlakat hududida pul barqarorligini ta'minlash uchun turli xil metodlardan foydalanib kelishmoqda. Yurtimizda ham pul barqarorligiga erishish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi daromadlilagini ta'minlash, pul-kredit siyosatini to'g'ri yuritish, inflatsiyani past darajada ushlab turish uchun " Inflatsion targetlash " usuliga bosqichma bosqich o'tish uchun harakat qilinmoqda. Buning uchun esa Markaziy bank va Moliya Vazirligi tomonidan O'zbekistonni rivojlantirish strategiyalarida belgilangan maqsadlarga erishish uchun pul muomilasi tartibga solinib kelinmoqda. Albatta har bir tashkilotning o'z qarashlari va hisob kitoblari bo'lishi quvonarli holatdir. Markaziy bank tomonidan 2023-yil yakuniga inflatsiya miqdorini 5 foizgacha tushirish taxmin qilingan bo'lsa, Moliya vazirligi 2023-yil oxirida iqtisodiyotimizda inflatsiya miqdori 7-8 foiz bo'lishini tahmin qilgan. Bu tahminlar albatta o'z hisob kitoblariga ega. Bu esa shuni ko'rsatadiki Yurtimizda olib borilayotkan islohotlarning belgisidir. Shunday qilib milliy valyuta barqarorligini ta'minlash har bir mamlakatning Markaziy bankining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi va Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini to'g'ri yuritish orqali bu vazifani bajarish mumkin deb hisoblaymiz.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

12. "Valyutani tartibga solish to'g'risida "gi 2019-yil 22-oktyabrdagi O'RQ 573-sonli qarori
13. "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" PF-5877 sonli qaror
14. "2022 — 2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" PF-60 sonli qaror
15. "Pul-kredit siyosatini amalgalash oshirish Konsepsiysi" O'zbekiston respublikasi markaziy banki <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/>
16. "Pul,Kredit va Banklar" darslik Sh.Abdullayeva Toshkent-2003 318-b
17. [http://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=currency&oq=cu](http://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=currency&oq=cu)
18. X.Xaydarov "Milliy valyuta pul birligi barqarorligini ta'minlash yo'llari" TDIU Moliya kafedra assistenti maqolasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.7844372>
19. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
20. <https://stat.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi elektron sahifasi